

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT HÁM
TURIZM MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSÍQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientificmethodical journal

№ 1

SHOLKEMLESTIRISHI:

O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi Nokis filiali

- Bas redaktor:** – Allanbaev Rudakiy, professor w.w.a
Bas redaktor orinbasari: – Kamalova Dilduza, filologiya ilimleri boyinsha
filosofiya doktori (PhD)
Juwapli xatker: – Gulmira Palwanova

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

- Omonilla Rizaev** – O'zbekiston mamleketlik k'rkem oner ham mad'niyat
institut'i, professor w.w.a.
Hikmat Rajabov – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi Nokis filiali,
professor w.w.a.
Sayyora Gafurova – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi, professor
Oydin Abdullaeva – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi, professor.
Qurbanbay Jarimbetov – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, professor.
Alima Berdimuratova – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, professor.
Ziyada Bekbergenova – OzR IA Qaraqalpaqstan bolimi, professor.
Oqilxon Ibragimov – O'zbekiston mamleketlik k'rkem oner ham mad'niyat
institut'i, professor.
Azizbek Turdiev – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatm'n jaslar,
mad'niyat ham sport mas'eleleri komiteti baslig'i
orinbasari, filologiya ilimleri boyinsha filosofiya
doktori (PhD).
Allanazar Abdiev – Filologiya ilimlerinin kandidati, Qaraqalpaqstan Respublikasi
xaliq jazirshisi
Artiqbay Erejepov – Nokis qalaliq 1-sanli balalar muzika ham k'rkem oner mektebi,
pedagogika ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD).
Janabay Marziyev – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, filologiya
ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD), docent.
Iroda Mirtalipova – OzMK janindagi B.Zokirov atindagi MEKOI, k'rkem
onertanir ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD).

JAMIYETLIK KENES:

- | | |
|-----------------------|-------------------------|
| Baxtiyor Sayfullaev | Najimatdin Muxameddinov |
| Ozodbek Nazarbekov | Najimatdin Ansatbaev |
| Komoliddin Urinbaev | Gulistan Annaqlicheva |
| Dawitbay Qurbaniyazov | Rayxan Saparova |
| Qalbay Turdiev | Paraxat Mamutov |

MAZMUNÍ

Алланбаев Р. Миллий мәдениятымызды рауажландыруу жолында және бир кәдем	3
---	---

MUZİKATANIW

Мамутов П.А. Замангөй музыка тәлим системасын жетилистириүде руухыйлыктын орны	5
Пахратдинов Ш. Работа над произведением крупной формой	10
Sayidov T. D. Xonandalik ovozing fiziologik va akustik xususiyatlari	14
Мирталипова И.М. Ҳинд мусика назариясидаги товушкатор структураларига бир назар	16
Raimova D.M. O'rta Osiya musiqa cholg'ularining paydo bolish tarixi	20
Расулов М.М. Мусика, теле ва радио дастурларнинг муҳим компоненти ва композицион омили сифатида (тембр, темп, ритм, импульсивлик мисолларида)	23
Matyakubova U.G'. V-XV asrlar markaziy Osiyada musiqa madaniyatining nazariy asoslari	28

KORKEM ONER

Ражабов Х.Ж. Арсланбай Нажимов ижодига бир назар... ..	33
Matimuratov S.E. Qaraqalpaq kompozitori Kenesbay Abdullaev doretivshiligi haqqinda	35
Qutekeeva R.A. Qaraqalpaq kirkem onerinde Ilish Xojametovtin tutqan ornı	39
Allaniyazov B.Q. Muzika kirkem onerinin bayteregi (<i>Kompozitor Najimatdin Muxammeddinovtin omiri ham doretivshiligi haqqinda</i>)	44
Чаршемов Ж.А. «Қоблан» балетининг композицион хусусияти	48
Абдуллаева Ш.С. Труд все побеждает	57
Abatbaeva R.A. Qaraqalpaq kirkem onerinde kompozitor Gayip Demesinovtin tutqan ornı	61
Палўанова Г.А. «Аязий» драмасында кахарман характерин сәулелендириүдиц өзине тән қасийетлери	65
Палўанова Г.А. Каракалпакстанда театр режиссурасының пайда болыуындагы миллий дәреклер	68
Muxammeddinov Q. Milliy opera ham balet janrdagi tarixiy shigarmalar	71
Parmonov D.R. «Doira va urma zarbli cholg'ulari» musiqa san'atining yorqin namoyondasi	75
Каримова И.И. Традиции исполнения музыки Каракалпакского композитора Гаип Демесинова	78

ATQARIWSHILIQ ONERI

Erejepov A.A. Baqsishiliq kirkem onerinde doretilgen qosiq ham namalarini jaslar tarbiyasindagi ahmiyeti	83
Tnibaev P.K. Dirijyorliq kirkem onerinin turleri ham evolyuciyasi	87
Шарипова А.Р., Сидикова А.М. К вопросу о фортепианном исполнительском искусстве в Узбекистане	92
Ayubov K.Z. Foniologiya va odam ovozi tasnifi	95
Ziyovutdinova Z.U. XIX asrning ikkinchi yarimida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi sohasidagi jiddiy o'zgarishlar	98
Dadaboyev X.M. Xalq cholg'ulari ansamblarini tashkil etish	100
Aliev N.G. Demli saz asbaplar tarixi, klassikalik muzika ham onin bugingi kundegi tutqan ornı	102

Saidxonov A.S. Cholg‘u konsert janrı tarixı va taraqqiyoti	105
Jumabaev A.E. Qaraqalpaq kórkem ónerinde xalıq namalı qosıqlarınm tutqan orm	110

MUZIKA PEDAGOGIKASI

Xojanazarov T. Vokal pedagogikasidagi metodlardı zamanagóy pedagogikaga aylandıırıw usılları	115
Ходжаметова Г.И. Задача обучения, воспитания и развития детей в музыкальной школе	117
Botirova X.T. Musıqa ta‘limi pedagogikasida o‘quvchi yoshlarni ma‘naviy-axloqiy ta‘lim-tarbiyasini shakllantirish	121
Saidumarov I. Ta‘lim-tarbiya va shaxsning ma‘naviy kamoloti xususuda sharq allomalarining qarashlari	124
Абдисултанов Ж.Дж. Болалар мусика ва санъат мактабларида «Мусика адабиёти» фанини ўқитишда инновацион ёнлашув	128
Матёқубов Э.Г. Мусикада модулли таълим асослари	131
Najmetdinova N.I. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatining ahamiyati va mazmuni	137
Iseev R.A. Fortepiano paninin jahon muzika oqıw procesindagi ahmiyeti ham orm	141
Dauletbaev T.K. Milliy saz asbaplarm mektep oqıwshılarma ўyretiwдин ahmiyeti	145

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

Бекбергенова З.У. Қарақалпақ халық дәстаны «Қырық кыз» хэм хэзирги қарақалпақ драматургиясы	150
Утепова Т.Б. Маданиятлараро мулохот таҳлиллари Европа олимлари назарида	153
Жумашева А.Х. Интерактивные приёмы и формы проведения практических занятий	159
Саденова Г.П. Қарақалпақ паремиологиясында жақсылық концепти	163
Mambetnazarov M.K. Хожа Ахмет Яссавий hikmetlerinin jaslar tarbiyasidagi ahmiyeti	166
Марзияев Ж.К. Мақаланың публицистикалық сыпатламасы	169
Камалова Д.Э. Шығарма композициясында турмыс шынлығын сәулендириў шеберлиги	171
Мамбетназарова Р.К. Идеино-тематические особенности жанр путешествия в Каракалпакской литературе (на примере «Путешествия в пять стран по океану» Тажсена Изимбетова)	175

JAS IZERTLEWSHILER

Paxratdinov J.A. Kop qırlı talant iyesi	180
Jumamuratova A.A. Qaraqalpaqstanda Opera janrınm tutqan orm	181
Muratbaeva A.A. Jaslardın muzikalıq intellektın asırıwda muzika sınshısı Gulmaryam Kamalovanın orm	185
Orazalieva G.S. Güllengen dawırde — Jana namalar (Jamil Charshemov dóretpeleri haqqında)	186
Segizbaeva G.Q. Qaraqalpaqstanda daslepki muzikalıq drama janrınm payda bolıwı	188

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI IJROCHILIGI SOHASIDAGI JIDDIY O'ZGARISHLAR

Ziyovutdinova Z.U.

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrdagi cholg'ular asboblari tarixi yoritib berilgan, ularning modernizatsiyasi, shuningdek cholg'u sozlari takomillashuvi haqidagi ma'lumotlar kelajak avlodga yetib borish uchun olimlarning qilgan mehnatlari yoritib berilgan.

Аннотация: в статье раскрыты история инструментов появившихся в 19 веке, о модерениации инструментов, о том какие труды и силы вложили ученые чтобы народная музыка передавалось возрастающему поколению.

Annotation: the article reveals the history of instruments that appeared in the 19th century, about the moderation of instruments, about what work and effort scientists have invested in order for folk music to be passed on to the rising generation.

Tayanch iboralar: nay, qo'shnay, surnay, karnay, bo'lamon, chang, qashqar rubobi, buxoro (afg'on) rubobi, tanbur, dutor, do'mbra, g'ijjak, sato, doyra, qayroq, safoil, cholg'ular, san'at, musiqa ustalari, To'ychi Xofiz, Shorahim Shoumarov, Shobarot tanburchi.

Musiqaning sirli dunyosiga kirgan odam, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon – moziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, an'analar kamolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi, ijodiyot degan ilohiy ne'mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Har bir davr o'zining musiqiy an'analari bilan izohlanishining ham hikmati shundadir. Musiqaning samoviy yoki ilohiy ekanligi qadimiy manbalarda o'z aksini topgan. Insoniyat esa o'z ma'naviyati darajasida o'zining ma'naviy boyliklarini shakllantirib, davrlar osha rivojlanib kelgan. Bu jarayonda har soha zamonlar yemirilishida charxlanib, mukammallashib, yangidan-yangi ijodiy munosabatlar negizida boyib, o'z samarasini namoyon etib elgan. Musiqa san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta'sir etganligi, fanda o'z ijobatini topgan. Hayot taraqqiyoti jarayonlarida, G'arb madaniyatining o'ziga xos kamol topganligini esa, hozirgi zamon musiqa san'ati ko'lamidan ilg'ab olish mushkul emas. Har bir xalq o'zining milliy musiqa san'ati bilan birgalikda, ularda asoslangan g'arbona musiqa shakllantirdilar. Buni, ilk bosqichlarini taqlidiy munosabat ekanligiga ham shubha yo'q. Lekin zamon va makon, mafkura va siyosat, qolaversa, zamonaviy ijodiy munosabatlar yangi yo'nalishlarni vujudga kelishini ta'minlab beradi.

O'rta Osiyo hududida Parfiya, So'g'diyona, Baktريا, Xorazm kabi turli davlatlarning vujudga kelganligi bizga tarixdan ma'lum. IX-X asrlarda Eron va Afg'oniston davlatlari hududi Buxoro xonligining yerlari bo'lgan. XII asrda Xorazm hukumronligi shimoliy Hindistongacha bo'lgan juda katta hududni egallagan edi. XIV asrda mo'g'ul imperiyasi vayronalarida Temurning buyuk saltanati yuzaga keladi va Samarqand uning markazi bo'lgan. Shuning uchun musiqiy cholg'ularning yaratilishi va rivojlanishini faqatgina bir xalqning mahsuli deb hisoblash noto'g'ri. Ular ko'p asrlik rivojlanish natijasida, o'zaro ta'sir va o'zaro aloqalar orqali vujudga kelgan. Musiqiy cholg'ularning eramizgacha mavjud bo'lganligini tasdiqlovchi zamonaviy arxeologik topilmalar katta qiziqish uyg'otadi. Jumladan, yaqinda Samarqand viloyatining qishloqlaridan birida, ayol qabridan oltin va bronza taqinchoqlar orasida suyakdan ishlangan nay topilgan hamda uning bronza davriga mansubligi aniqlangan. Shuni ham aytish kerakki, o'zgacha ko'rinishga ega bo'lgan buben cholg'usi ham O'rta Osiyoda qadimda istiqomat qilgan aholiga ma'lum bo'lgan [4].

Afrosiyobning terrakota haykalchalariga qarab, lyutnya (ud) so'g'diylarning sevimli cholg'usi bo'lganligini aniqlash mumkin. Cholg'uning katta va kichik hajmdagi, yumaloq va uzunchoq shakldagi, ammo asosiy jihatlari o'xshash bo'lgan turlarini uchratamiz. Ushbu tasvirlarda biz lyutnyaning

torlitirnama, kosaxonasi katta va dastasi kalta, bosh qismi orqaga qayrilgan turlarini ko'rishimiz mumkin. Bu cholg'u «kalta lyutnya» yoki ud nomi bilan mashhurdir. So'g'd musiqachilari udni tik turgan holda, o'ng qo'lini torlarga (ba'zan mizrobni ushlab), chap qo'lini esa cholg'uning dastasiga qo'ygan holda ijro etganlar. Ko'proq cholg'ularda to'rttadan ba'zilarida esa uchtdan torlari mavjud. Torlar dekaga joylashtirilgan tor ushlagichga mahkamlangan. Daraxt tanasidan butunligicha o'yib olingan terrakota lyutnyasi ham katta qiziqish uyg'otadi. So'g'diylar bu cholg'uni qanday nomlaganliklari noma'lum bo'lganligi sababli, unga ovro'pacha «lyutnya» atamasi qo'llanilgan. Afrosiyob terrakota haykalchalarida lyutnyaning ko'p tasvirlanganligi So'g'diylarda bu cholg'u keng qo'llanilganligidan dalolat beradi. Kalta lyutnya tasviri qadimgi Xorazm, Marv va sharqiy Turkistonning terrakotalarida ham uchraydi. Ma'lumotlarga qaraganda, lyutnya Gretsiyada mashhur cholg'u bo'lmagan. Qadimgi Misrda esa ko'pgina madaniy yodgorliklarning tasdiqlashicha «uzun lyutnya» nomli cholg'uning boshqa turi mavjud bo'lgan, u ham bo'lsa qadimgi Misr musiqa tadqiqotchilarining taxminiga ko'ra Misrga Osiyodan keltirilgan ekan. Ud Xitoy pipasi Italiya mandolinasi Pipa atamasini L.Pikken quyidagicha «pi» qo'lni oldinga, «pa» esa orqaga harakati deb izohlaydi. L.Pikken: – kalta lyutnya (oval shakldagi korpusli) Xitoyda V asrning boshlarida paydo bo'lganligini va uning kelib chiqish tarixini esa Markaziy Osiyo, balkim Parfiya davlatlari bilan bog'lash lozimligini ta'kidlaydi. L.Pikkenning fikri alohida e'tiborga loyiqdir. XIX asrning ikkinchi yarmida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi sohasidajiddiy o'zgarishlar yuz berdi: yangidan yangi shakllar paydo bo'ldi [6: 62-63].

Xalq ijrochiligi an'analari asosida yangi, nisbatan murakkab va mukammal, xalq hayotining turli tomonlarini yorituvchi kuy va qo'shiqlar yaratila boshlandi. Taniqli dutorchi, tanburchi, doyrachi, naychi, surnaychi, bulamonchi, g'ijjakchi qashqar va afg'on rubobchilari paydo bo'ldi. Xalq cholg'ulari musiqa ixlosmandlari orasida keng yoyildi. Ular « Navro'z » bayramlarida va shu singari xalq sayllari va tomoshalarida, hosil bayramlarida faol ishtirok etdilar. Cholg'ular orasida musiqa tovushlarini yozib ko'rsatadigan maxsus belgilar tizimini (notatsiya) yaratishga intilish paydo bo'ladi. Buni amalga oshirish shoir va musiqachi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825–1879) ga nasib etadi. Chiziq ustidagi va ostidagi nuqtalar bilan tanbur torlarini usti yoki ostidan chertish soni ifodalangan. Bu Xorazm tanbur yozuvi o'ngdan chapga o'qilgan. Muallif xorazm olti yarim maqomining birinchi maqomi « Rost » ni cholg'u va aytim yo'llarini yozib oladi. Bu ishlarda o'g'li Mirzo Matrasulboy yaqindan yordam beradi. Muhammad Rahimxon (Feruz) ning yordamida mashhur xattotlar tomonidan nusxalar ko'paytiriladi. Nusxalardan bittasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, 1 nusxasi O'zbekiston davlat konservatoriyasida saqlanib kelinmoqda. Mukammal bo'lmasada, bu Tanbur notatsiyasi «Ros» maqomi yangi nota yozuv uslubi ijrochilik tarixiga musiqa merosini yozib olish va saqlab qolish yo'lidagi ilk urinish sifatida kirdi. Notatsiya muallifi katta musiqa arbobi va o'qituvchisi ham edi. Xudoybergan Muxrkan, Xudoyberdi Mahsum, Bobojon bo'lamonchi, Muhammad Rasul Mirzo, Matyoqub Xarratov, Matniyoz Yusupov va ko'pgina boshqa taniqli sozanda va xonandalar undan dutor, tanbur, g'ijjak, bo'lamon, surnay, doyra va boshqa cholg'ular chalishni o'rganishgan. O'zbek xalq cholg'u ijrochiligi taraqqiyotiga xorazmlik sozandalardan dutorchi Qambar bobo, bo'lmonchilar Abdurahmonbek, Abdulla bo'loman, Yoqub bo'lamon, surnaychi Sharif Mehtar, tanburchi Muhammad Yoqub Xarratov, Usta Xudoyberdi, Niyozxo'jalar katta hissa qo'shishgan. Xorazmda Otajonov, garmonchilardan Safo Mug'anniy, Xo'ja Jumaniyoz Xayitboyev va boshqalar xalq orasida juda mashhur edilar. Ta'kidlash kerakki, notatsiya kashf qilinganligiga qaramay o'zbek xalq musiqa cholg'uchiligi asosan ko'p sonli ijrochilik san'ati ustalari tomonidan yaratilgan an'anaviy og'zaki usulda rivojlandi.

Musiqa asarlariga jiddiy yondashuv esa har bir ijroning takrorlanmas o'ziga xos bo'lishini ta'minladi. Pahlavon Mirzaboshi Komilning shogirdi Muhammad Yoqub Xarratov (1867–1939) mashhur tanburchi edi. U nafaqat cholg'uchilik san'atini, balki xattotlik san'atini ham mukammal egallagan. Iste'dodli cholg'uchi Komil Xorazmiy rahbarlik qilgan saroy xalq cholg'ulari ansamblining sozandasi bo'lgan. Muhammad Yoqub Xarratov (Matyoqub Xarratov) tanbur notat tyzishda Muhammad Yoqub Xarratov xorazmcha maqomlarni olishda qatnashgan. Ustozidan maqom turkumlarini qa xorazmcha bul qilib, ularni saqlanib qolishiga katta hissa qo'shgan. M.Xarratov Rossiyada mavjud

bo'lgan nota ilmini egallashni orzu qilgan. U qator iste'dodli ijrochilarni tayyorlagan, usta tanburchi sifatida ijrochilik mahorati sirlarini Mustafo, Yunus, Asqar, Matyusuf Xarratov, Matpano Ota Xudoyberganov va boshqalarga o'rgatgan. Muhammad Rahimxon (1806–1825) saroyida ishlagan mashhur tanburchi va qo'shiqchi Niyozxo'ja Xojining ijodiy va ijrochilik faoliyati Xivada kechdi. U Xorazm musiqa madaniyatiga katta e'tibor berdi. Matyoqub Xarratovning aytishicha, Niyozxo'ja Buxoroga «Shashmaqomni» o'rganish uchun borgan. U Buxorodan qaytgach, buxorocha maqomlar Xiva cholg'ulari tomonidan o'zlashtirilib, Xorazmda keng tarqala boshladi. mashhur Xorazmning cholg'uchilari Muhammadrahim Feruz, Komil Xorazmiy, Mirzo Muhammadrasul va boshqalar Niyozxo'ja bilan hamkorlikda maqomlarga yangi cholg'u bo'limlari qo'shib, ularni boyitdilar. XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon mashhur cholg'uchilar to'plangan markazga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrda ijrochilik amaliyotida nay, qo'shnay, surnay, karnay, bo'lamon, chang, qashqar rubobi, buxoro (afg'on) rubobi, tanbur, dutor, do'mbra, g'ijjak, sato, doyra, qayroq, safoil kabi cholg'ular mustahkam o'rin oldi. Cholg'u ijrochiligi san'ati tarixida ham XIX asr bir qator musiqa ustalarini yetishtirib chiqargan davr bo'ldi. Bular: To'ychi Xofiz, Shorahim Shoumarov, Shobarot tanburchi, Abdusoat dutorchi, Usta Usmon Zufarov (Toshkent), Rustambek (Andijon), Ashurali Mahram, Abduqodir naychi, Ahmadjon qo'shnaychi (Qo'qon), Abdulla Tarak, Ro'zimatxon changchi (Namangan), Usta Masaid doyrachi va changchi Usta Olim Komilov, Yusufjon qizik (Marg'ilon) va boshqalardir. Bu san'atkorlar o'zbek xalq musiqasi xazinasi boyliklarini saqlab qolishda, yosh iste'dodlarni tarbiyalashda, qadimiy cholg'ularning tuzilishini takomillashtirish va yangiliklarni yaratishda katta rol o'ynashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Azatgul Tashmatova*. «Ijrochilik san'ati tarixi». Toshkent - 2017.
2. *Rahimov. Sh, Lutfullayev. A* «Cholg'ushunoslik». Toshkent - 2010.
3. *Lutfullayev. A* «Xalq cholg'ularida ijrochilik». Toshkent - 2010.
4. *Odilov. A* «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi». Toshkent - 1994.
5. *Abdurahimova. F* «Orkestr sinfi». «G.G'ulom» nashriyoti 2019.
6. *Вызго Т.* Миграция музыкальных инструментов Средневосточного региона на Запад в эпоху раннего средневековья // Традиции музыкальных культур народов Ближнего, Среднего Востока и современность. – М., 1987.

XALQ CHOLG'ULARI ANSAMBLLARINI TASHKIL ETISH

Dadaboyev X.M.

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ansambl sinfining tashkil etishi, ansambl rahbarining vazifalari, ansambl haqidagi bilimlar, ijrochilarning vazifalari tushuntirib boriladi. Ansamblda olib boriladigan faoliyat yoritib berilgan.

Kalit so'zlari: cholg'u, xalq, kuy, qo'shiq, dutor, A.Farobiy, S.Urmaviy, musiqa, kitob, musiqa nazariyasi, musiqa kitobi, tarix, musiqa ilmi, mizrobli, noxunli, tanbur, rubob, rezanator, tortilgan ochiq cholg'u asboblari, shohrux, chiltor, lira, chang, arfa.

Аннотация: В этой статье раскрыта понятие об ансамбле. Так же организация ансамблевого класса, разъясняются задачи руководителя ансамбля, знания об ансамбле, задачи исполнителей.

Annotation: this article reveals the concept of the ensemble. The organization of the ensemble class is also explained, the tasks of the head of the ensemble, knowledge about the ensemble, the tasks of the performers are explained.